

TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI

**Temir yo‘l transportida axborot
tizimlari kafedrası**

**PHP Dasturlash Tili Yordamida Institut Talabalari Haqidagi Ma’lumotlar
Bazasini Yaratish**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Muallif

Uralov N.B.

Toshkent – 2018 y.

TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI



Himoya qilishga
ruhsat berilsin

Kafedra mudiri

«19» 06 2018 y.

“Temir yo‘l transportida axborot tizimlari” kafedrası
“Php dasturlash tili yordamida institut talabalari haqidagi ma’lumotlar
bazasini yaratish”
mavzudagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Muallif

N.B. Uralov

Asosiy maslahatchi

Z.X. To‘laganova

Maslahatchilar:

Kafedra mudiri

M.M.Rasulmuhammedov

t.f.n., dotsent

R.S. Razikov

Taqrizchi

SH.SH. Mirxamidov



Toshkent – 2018

Toshkent Temir Yo'l Muhandislari Instituti

oliy o'quv yurti

Iqtisodiyot fakulteti Temir yo'l transportida axborot tizimlari kafedrasıInformatika va axborot texnologiyalari (temir yo'l transportida) talim yo'nalishi AT-22 guruhiTasdiqlayman MRKafedra mudiri Pavlovskiy2018 yil 15.01

sana

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQTalaba Uralov Nodir Bohadir o'g'li

(familiyasi, ismi, sharifi)

1.Bitiruv ishining mavzusi: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ga fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni hisobga oluvchi axborot tizimining dasturiy taminotini yaratish".

«1» dekabr 2017 yil 4-sonli kafedra majlisida ma'qullangan va "25" dekabr 2017 yilgi 726-U buyrug'i bilan institut tomonidan tasdiqlangan.

2.Bitiruv ishini topshirish muddati 06.06.18

3.Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar

Mavzu bo'yicha adabiyotlar, Axborot tizimini yaratish, Temiryo'l umumiy kursi, PHP dasturlash tili, Malumotlar bazasi(MB)

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

1. Dasturiy ta'minot va uning turlari

2.Php dasturlash tili yordamida institut talabalari haqidagi ma'lumotlar bazasini yaratish axborot tizimining dasturiy taminotini yaratish

5. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

1.Php dasturlash tili yordamida instituti talabalari ma'lumotlar bazasini yaratish tuzilmasi.


2. Php dasturlash tili yordamida instituti talabalari ma'lumotlar bazasining infologik modeli er diagrammasi.

3. Php dasturlash tili yordamida instituti talabalari ma'lumotlar bazasining interfeyslari.

6. Bitiruv bo'yicha maslahatchi (lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1.	Kirish	To'laganova Z.X	18.01.2018	
2.	1-bob.Axborot texnologiyalari va tizimlari haqida tushuncha. Ularning turlari va vazifalari	To'laganova Z.X	30.01.2018	
3.	2-bob. Php web dasturlash tili, uning ma'lumotlar bazasi va web serverlar bilan bog'liqligi	To'laganova Z.X	26.03.2018	
4.	3-bob.Dasturiy ta'minotni yaratilish tafsilotlari	To'laganova Z.X	26.04.2018	
4.	4-bob.Xavfsizlik tushunchasi	To'laganova Z.X	20.05.2018	
5.	Xulosa	To'laganova Z.X	30.05.2018	

7. Bitiruvishinibajarishrejasi

№	Bitiruvishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
	Kirish	30.01.2018	
1.1	Axborot texnologiyalari va tizimlari haqida tushuncha. Ularning turlari va vazifalari	26.02.2018	
1.2	Axborot texnologiyalari va tizimlarining maqsadi va rivojlanish bosqichlari	12.03.2018	
2.1	PHP web dasturlash tili haqida umumiy ma'lumotlar. Undagi funktsiya va ob'yektlar	09.04.2018	
2.2	Serverlar haqida tushuncha. Denwer muhiti.	23.04.2018	
3.1	Institutdagi talabalar bo'limi haqida ma'lumotlar.	04.05.2018	
3.2	Talabalar ma'lumotlar bazasi va uni boshqaruvchi interfeys yaratilishining afzalliklari	15.05.2018	
4.1	Faoliyat xavfsizligini ta'minlash prinsip, usul va vositalari	20.05.2018	
4.2	Faoliyat xavfsizligining ergonomik asoslari	25.05.2018	
	Xulosa	30.05.2018	

Bitiruv ishi rahbari To'laganova Z.X (F.I.SH) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim Uralov N.B (F.I.SH) (imzo)

Topshiriq berilgan sana 15.01.2018 yil

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab temir yo'l sohasini rivojlantirishga bo'lgan katta e'tibor natijasida mazkur tarmoqda yuksak marralarga erishilmoqda. Bugungi kunga kelib temir yo'l transporti tizimi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi.

Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish, murakkab tog' va cho'l sharoitlarida yangi temir yo'llarni barpo etish, tezyurar poyezdlar harakatini tashkil qilish, temir yo'llarni elektrlashtirish, yuk va yo'lovchi tashish vagonlarini ishlab chiqarish bo'yicha yirik loyihalarning amalga oshirilishi nafaqat transport infratuzilmasini rivojlantirish, balki butun mamlakatni taraqqiy ettirishga xizmat qilmoqda.

O'tgan yillar davomida temiryo'lchilarimiz tomonidan 1100 kilometrdan ortiq yangi temir yo'llar barpo etilgani, 4 ming kilometrlik temir yo'l magistrallari modernizatsiya qilingani, 1700 kilometrlik temir yo'l bog'lamalari elektrlashtirilgani tahsinga sazovordir.

Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun g'oyat muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan va Amudaryo uzra qurilgan ko'priklarni ham qamrab olgan Navoiy – Uchquduq – Nukus – Sulton Uvaystog', Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on va Angren – Pop temir yo'llarining bunyod etilishi bilan O'zbekistonning yagona va mustaqil temir yo'l tarmog'ini shakllantirish ishlari yakuniga yetkazilganini ta'kidlash zarur.

Murakkab tog' va iqlim sharoitida bunyod etilgan, dengiz sathidan 1800 metr balandlikdagi tog' cho'qqilari orqali o'tgan va zamonaviy infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlangan, umumiy uzunligi 346 kilometr bo'lgan Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on hamda Angren – Pop temir yo'llari Markaziy Osiyo mintaqasida noyob inshootlar hisoblanadi.

2016 yilda ishga tushirilgan Angren – Pop temir yo'l tarmog'i Farg'ona vodiysini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan ishonchli bog'lash imkonini yaratgani bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa yangi xalqaro tranzit

temir yo‘l tizimining ajralmas va muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qilishi ham kutilmoqda.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining transport sohasidagi xizmat ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish maqsadida harakatlanadigan tarkibni zamonaviy, yuqori samarali lokomotiv va qulay vagonlar bilan ta‘minlash va modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. So‘nggi yillarda 49 ta zamonaviy elektrovoz va 10 ta yo‘lovchi tashish teplovozlari sotib olingani, 120 ta lokomotiv modernizatsiya qilingani bu boradagi ishlar ko‘lami tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘tgan davrda mamlakatimizda 16 ta yangi temir yo‘l vokzali bunyod etildi, 9 ta vokzal rekonstruksiya qilindi hamda yo‘lovchilarga xalqaro standart va talablar darajasida xizmat ko‘rsatish imkonini beradigan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlandi.

Xozirgi kunda Qarshi – Termiz temir yo‘l yo‘nalishida elektrlashtirish ishlari nihoyasiga yetdi. Umumiy uzunligi 325 kilometrda iborat mazkur liniyada endilikda dizel yoqilg‘isi bilan harakatlanuvchi teplovozlarda o‘rniga zamonaviy elektrovozlarda harakatlanadi. Joriy yilning 9 yanvar kuni Qarshi – Termiz elektrlashtirilgan temir yo‘lining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Ushbu loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 fevraldagi PQ-1712 Qaroriga muvofiq amalga oshirildi. Qarshi-Termiz temir yo‘lini elektrlashtirish teplovozlarni zamonaviy elektrovozlarga almashtirish, yuk va aholini tashish harajatlarini kamaytirish, harakat tezligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini yaratadi. Loyihaning umumiy qiymati 327,6 ming AQSH dollarini tashkil qiladi. Uning doirasida 6ta – Toshg‘uzor, Dehqonobod, Oqrabot, Boysun, Qumqurg‘on, №165-razezd tayanch nimstantsiyalari qurildi. Shuningdek, qurilish vakontakt simlariga xizmat ko‘rsatish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Termiz lokomotiv deposi rekonstruksiya qilinib, zamonaviy uskunalarda bilan ta‘minlandi.

Davlatimiz rahbarining Toshkent metropoliteni rivojini yanada yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida qabul qilingan bir qator muhim qaror va farmoyishlar asosida

Toshkent metropolitenining Yunusobod yo'nalishi ikkinchi bosqichi, Sergeli yo'nalishi qurilishi, Toshkent shahrida yer usti halqa metro liniyasining bunyod etilishi jadallik bilan olib borilmoqda. Yuqori sifat va jadallik bilan barpo etilayotgan metroning Sergeli yo'nalishi avvalgilaridan farqli tarzda yer ustidan o'tadi. Metro shaharning rivojlanish rejalari, yo'lovchilar oqimi, turar-joy mavzelari, ishlab chiqarish, savdo va dam olish maskanlari joylashuvi, muhandislik-geologik sharoitlarni inobatga olgan holda qurilmoqda. Poytaxtimizning aholisi zich hududlaridan biri bo'lgan Yunusobod tumanida uzunligi 7,6 kilometr bo'lgan, 6 ta bekatdan iborat metro yo'nalishining birinchi bosqichi 2001 yilda ishga tushirilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu yo'nalishning ikkinchi bosqich qurilish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Toshkent shahrida yer ustida bunyod etiladigan halqa metro liniyasining umumiy uzunligi 52,1 kilometrni tashkil etadi. Mazkur loyiha besh bosqichda amalga oshirilib, loyihalar 2020 yilda to'liq foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu yo'nalishlar to'liq foydalanishga topshirilgandan so'ng Toshkent metropoliteni bir yilda 70 million yo'lovchiga xizmat ko'rsata olish imkoniga ega bo'ladi.

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bugungi kunda yirik ta'lim va ilm-fan markazi bo'lib, u azaliy professional va pedagogik an'analariga ega. Dargoh doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlari va ta'lim texnologiyalarini yangilab bormoqda. Institutda mutaxassislar tayyorlashning innovatsion uslubiyoti ustuvor qisoblanib, u «O'zbekiston temir yo'llari» AJ korxonalari buyurtmalari bo'yicha loyiqalarni ro'yobga chiqarishda ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarining uyqunligiga asoslangan. Institut professor-o'qituvchilari tarkibida 300 dan ortiq mutaxassis bor va, ulardan 38 tasi fan doktori - professorlar, 129 tasi fan nomzodlari - dotsentlardir. Institut tarkibida to'rtta fakultet mavjud:

- Tashishni tashkil qilish va transport logistikasi;
- Elektromexanika;
- Qurilish;
- Iqtisodiyot.

O`quv yurtida Magistratura markazi, Malaka oshirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash Yo`l markazi, 23 ta kafedra, Informatsion texnologiyalar markazi, Informatsiya-resurs markazi, institut tarixi muzeyi va o`quv jarayoni va ilmiy faoliyatni ta`minlab beradigan boshqa bo`linmalar mavjud.

Mamlakatimizda AKT uchun xalqaro standartlarga muvofiq dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sifatli va raqobatdosh dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag`batlantirishni kuchaytirish, shuningdek 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni hal qilish, AKT mahsulotlari eksportini kengaytirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag`batlantirish maqsadida AKT sohasida mahalliy Innovatsiya markazi - «Mirzo Ulugbek Innovation Center»ni tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

«Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha «Mirzo Ulugbek Innovation Center»» Innovatsiya markazi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 avgustdagi 631-son "Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha «Mirzo Ulugbek Innovation Center» Innovatsiya markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tuzildi.

Shu bilan birgalikda hozirgi kunda O'zbekiston respublikasining barcha sohalarida va barcha tarmoqlarida keng o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, ishlab chiqarish, qurilish va hokazolar, shu bilan birga kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va mutaxassislarga bo'lgan talabni inobatga olishda ham keng ko'lamli o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan O'zbekiston respublikasi prezidentining 20.04.2017 y. PQ-2909 "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida" va 27.07.2017 y. PQ-3151 "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari tasdiqlangani buning yaqqol isbotidir. Ushbu qarorlarga muvofiq "...oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi" hamda "oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish " vazifalari belgilab berildi va izchil amalga oshirilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

Birinchi bobda internet va web dasturlash tillarining hozirgi zamon AT muhitidagi o'rne, PHP web dasturlash tilining kelib chiqishi tarixi va uning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Ikkinchi bobda PHP dasturlash tili va MySQL ma'lumotlar bazasi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan bo'lib, ularning o'zaro bog'liklari to'g'risida gapirib o'tilgan. Dastur ishlashi uchun kerak bo'ladigan apache serverning PHP dasturlash tili bilan bog'liqligi to'g'risida ham to'xtalib o'tilgan.

Uchinchi bobda dasturiy tizimga qo'yiladigan talablar, dastur interfeysi va undan foydalanish yo'riqnomasi ishlab chiqilgan.

To'rtinchi bob texnika xavfsizligiga bag'ishlangan bo'lib, unda xavfsizlik tushunchalari haqida qisqacha umumiy ma'lumotlar berilgan.

Xulosa qismida ish davomida olingan asosiy masalalarning yechimi va bajarilgan ish haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

I. ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TIZIMLARI

1.1-§. Axborot texnologiyalari va tizimlari haqida tushuncha. Ularning turlari va vazifalari

Axborot tizimi tushunchasini kiritishdan oldin tizim (sistema) deganda nimani tushunishimizni aniqlab olaylik. Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yulida bir vaqtning o'zida xam yaxlit, xam o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatuvchi elementlar (ob'ektlar) majmuasi tushuniladi. Demak, har qanday tizim biror-bir anik maqsad yulida xizmat qiladi. Masalan, sizga ma'lum bo'lgan shahar telefon tarmoqlari tizimi, insondagi yurag' kon-tomir tizimi, asab tizimi va boshqalar sun'iy yaratilgan va tabiiy tizimlarga misol bo'la oladi. Ularning har biri tizimga qo'yiladigan barcha shartlarga javob beradi, ya'ni, har biri o'ziga xos yagona maqsad yulida faoliyat ko'rsatadi va tizimni tashkil etuvchi elementlardan iborat.

Quyidagi jadvalda elementlari va asosiy maqsadi ko'rsatilgan xolda tizimlarga yana bir nechta misollar keltirilgan.

	Tizim turlari	Tizimning elementlari	Tizimning asosiy maqsadi
1	Korxona	Odamlar, qurilmalar, materiallar, bino va h.k.	Mahsulot ishlab chiqarish
2	Kompyuter	Elektron va elektro-mexanik qurilmalar	Mahsulotlarni qayta ishlash
3	Telekom-munikatsion tizim	Kommunikatsiya vositalari, elementlar, aloqa kanallari, qurilmalar	Aloqa kanallarini o'zaro bog'lash va ma'lumot almashinuvini ta'minlash
4	Axborot tizimi	Kompyuter, kompyuter tarmoqlari, odamlar, axborot, dasturiy ta'minot va boshqalar	Axborotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash

Informatikada «tizim» tushunchasi ko'prok texnik vositalar, asosan, kompyuterlar va murakkab ob'ektlarni boshqarishga nisbatan ishlatiladi. «Tizim» tushunchasiga «axborot» so'zining qo'shilishi uning belgilangan funktsiyasini va yaratilish maqsadini anik aks ettiradi.

Axborot tizimi — belgilangan maqsadga erishish yulida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar va shaxslarning o'zaro bog'langan majmuasidir.

Axborot tizimlari jamiyat paydo bo'lgan paytdan boshlab mavjud bo'lgan, chunki rivojlanishining turli bosqichida jamiyat uz boshqaruvi uchun tizimlashtirilgan, oldindan tayyorlangan axborotni talab etgan. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlari — moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayonlarga tegishlidir. Chunki ular jamiyat rivoji uchun xayotiy muhim ahamiyatga ega. Aynan ishlab chiqarish jarayonlari tezkor takomillashadi. Ularning rivojlanib borishi bilan boshqarish xam murakkablashadiki, o'z navbatida, u axborot tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Shu sababli, avvalo, boshqaruv tizimi nima ekanligini bilib olaylik.

Kibernetik yondashuvga muvofiq boshqaruv tizimi boshqaruv ob'ekti (masalan, korxonalar, tashkilotlar va xokazo) va boshqaruv sub'ekti, boshqaruv apparati yig'indisini o'zida namoyon etadi. Boshqaruv apparati deganda maqsadlarni shakllantiruvchi, rejalarni ishlab chiquvchi, qabo'l kilingan qarorlarga talablarni moslashtiruvchi, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi xodimlar tushuniladi. Boshqaruv ob'ekti vazifasiga esa boshqaruv apparati ishlab chiqqan rejalarni bajarish kiradi, ya'ni boshqaruv tizimining o'zi aynan mana shu ishlarni amalga oshirish uchun to'zilgandir.

Boshqaruv tizimining ikkala komponenti to'g'ri (T) va aks (A) aloqalar bilan bog'langan. TuKri aloqa boshqaruv apparatidan boshqaruv ob'ektiga yunaltiladigan axborot oqimida ifodalanadi. Aks aloqa teskari yunalishda yuboriluvchi qabo'l kilingan qarorlarning bajarilishi haqidagi xisobot axboroti oqimida uz aksini topadi.

Axborot oqimlari (T va A), qayta ishlash vositalari, ma'lumotlarni uzatish va saqlash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha operatsiyalarni bajaruvchi boshqaruv apparati xodimlarining o'zaro aloqasi ob'ektning axborot tizimini tashkil etadi.

Axborot tizimlari nafakat axborotni qayta ishlash va saqlash, yozuv-chizuv ishlarini avtomatlashtirish, balki qarorlarni qabo'l qilish (sun'iy intellekt usullari, ekspert tizimlari va xokazolar), zamonaviy telekommunikatsiya vositalari (elektron pochta, telekonferentsiyalar), yalpi va lokal xisoblash tarmoqlari va boshqaruvning yangi uslublaridan foydalanish xisobiga boshqaruv ob'ekti faoliyati samaradorligini oshiradi va shu maqsadda keng qo'llaniladi.


Tashkiliy boshqaruvda axborot tizimlari — shaxslar funktsiyalarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. Bu sinfga xam sanoat (korxonalar), xam nosanoat ob'ektlari (bank, birja, suKo'rta kompaniyalari, mexmonxonalar va xokazolar) va ayrim ofislar (ofis tizimlari)ni boshqarishning axborot tizimlari kiradi.

Texnologik jarayonlarni boshqarishda axborot tizimi turli texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan (moslashuvchan ishlab chiqarish jarayonlari, metallurgiya, energetika va xokazolar).

Texnologiya so'zi grekchadan tarjima kilinganda san'at, ustalik, malaka ma'nosini anglatadi. Texnikada texnologiya deganda ma'lum kerag'li material maxsulotni xosil qilish uchun usullar, metodlar va vositalar yig'indisidan foydalanadigan jarayon tushuniladi. Texnologiya ob'ektining dastlabki, boshlang'ich xolatini uzgartirib, yangi, oldindan belgilangan talabga javob beradigan xolatga keltiradi. Misol uchun sutdan turli texnologiyalar orqali katik, tvorog, smetana, yog' va boshqa sut maxsulotlarini olish mumkin. Agar boshlang'ich xom ashyo sifatida axborot olinsa, ushbu axborotga ishlov berish natijasida axborot maxsulotinigina olish mumkin. Ushbu xolda xam «texnologiya» tushunchasining ma'nosi saklanib kolinadi. Fakat unga «axborot» so'zini qo'shish mumkin. Bu narsa axborotni qayta ishlash natijasida moddiy maxsulotni emas, balki axborotnigina olish mumkinligini aniqlab turadi.

Texnologiyani quyidagicha ta'riflash mumkin. Texnologiya — bu sun'iy ob'ektlarni yaratishga yunaltilgan jarayonlarni boshqarishdir. Kerag'li jarayonlarni kerag'li yunalishda borishini ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik yaxshi tashkil etilganligi texnologiyaning samaradorligini bildiradi. Bu yerda tabiiy jarayonlar nafakat moddaning tarkibi, tuzilishi va shaklini uzgartirish maqsadida, balki axborotni qayta ishlash va yangi axborot xosil qilish maqsadida xam boshqariladi. Shuning uchun axborot texnologiyasini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Axborot texnologiyasi — bu axboriy ma'lumotni bir Ko'rinishdan ikkinchi, sifat jixatidan yangi Ko'rinishga keltirish, axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatishning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayonidir.



Axborot texnologiyalari bir necha turlarga bo'linadi:

1.Ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari. Ular ma'lum algoritmlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov beruvchi masalalarni yechishga muljallangan. Masalan, xar bir firmada o'zining xodimlari haqidagi axborotga ishlov beruvchi axborot texnologiyasi albatta bo'lishi kerag'.



2. Boshqarishning axborot texnologiyalari. Ularning maqsadi ish faoliyati qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan insonlarning axborotga bo'lgan talabini qondirishdan iborat.

Boshkarishning axborot tizimlari tashkilotning utmishi, xozirgi xolati va kelajagi haqidagi axborotni xam o'z ichiga oladi.

3. Ofis(idora)ning axborot texnologiyasi.

Avtomatlashtirilgan ofisning zamonaviy axborot texnologiyalari bu — tashkilot ichidagi va tashki muxit bilan kommunikatsion jarayonlarni kompyuter tarmoklari va axborotlar bilan ishlovchi boshqa zamonaviy vositalar asosida tashkil etish va kullab-kuvvatlashdan iborat. Buning uchun maxsus dasturiy vositalar xam ishlab chiqilgan. Ulardan biri Microsoft Offise dasturlar paketidir. Uning tarkibiga Word matn muxarriri, Excel elektron jadvali, Power point takdimot uchun grafikani tayyorlash dasturi, Microsoft Access ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari kiradi.

Hozirgi paytdagi kompyuterlar uchun ko'plab dasturiy vositalar mavjudki, ular barcha turdagi axborot texnologiyalarini ta'minlay oladi. Ularning ayrimlari bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Ma'lumotlar ombori. Uar qanday axborot texnologiyasining majburiy komponenti ma'lumotlar omboridir (MO). Avtomatlashtirilgan ofisda MO firmaning ishlab chiqarish tizimi haqidagi barcha ma'lumotlarni uzida saklaydi. MO, uni tashkil qilish va boshqarish haqida batafsil 10- bobda tanishib chiqamiz.

Matn protsessori. Bu matnli xujjatlarni tashkil etish va ularga ishlov berishga muljallangan dasturiy vosita turidir. Masalan, matn muxarririda tayyorlangan xat va xujjatlarni doimiy ravishda qabul qilish menedjerga firmadagi xolatni doimo



nazorati ostida to'tishga yordam beradi.

Elektron pochta (Ye-mail) — kompyuterlardan tarmokda foydalanishga asoslangan bo'lib, xamkor (partnyor)larga ma'lumotlar junatish yoki ulardan ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi.

Audiopochta — bu ma'lumotlarni klaviatura yordamida emas, balki tovush orqali uzatuvchi pochtaadir.

1.2-§. Axborot texnologiyalari va tizimlarining maqsadi va rivojlanish bosqichlari

Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining maqsadi insonning talabini qondiradigan yangi maxsulot ishlab chiqarishdan iborat. Axborot texnologiyasining maqsadi esa insonning biror-bir ishni bajarishi uchun zarur bo'lgan, uni taxlil etish va u asosida qaror qabul qilishi kerag' bo'lgan yangi axborotni ishlab chiqarishdan iborat (2.4-rasm). Turli texnologiyalarni kullab, bitta moddiy resurslardan turli maxsulotlar olish mumkin. Xuddi shu narsani axborot texnologiyalariga nisbatan xam aytish mumkin. Misol: matematikadan nazorat ishini bajarganda xar bir o'quvchi boshlang'ich axborotni qayta ishlash uchun o'zining bilimini kullaydi. Masalaning yechimi bo'lgan yangi axborot maxsuloti, o'quvchi tanlay olgan masalani yechish texnologiyasi, usuliga bog'liq.

Moddiy ishlab chiqarishda turli maxsus jixozlar, stanoklar, uskunalar va boshqalar ishlatiladi. Axborot texnologiyalari uchun xam o'zining «uskunolari», vositalari mavjud. Bular kseroks, telefaks, faks, skaner va boshqa vositalardir. Bu vositalar orqali axborotga ishlov berilib, uzgartiriladi. Uozirgi paytda axborotga ishlov berish uchun kompyuterlar va kompyuter tarmoklari keng kullanilmokda. Axborot texnologiyasida kompyuterlar va kompyuter tarmoklarining kullanishiga urKu berish maqsadida ko'pincha kompyuter va kommunikatsion texnologiya haqida gapirishadi.


Axborot texnologiyalari jamiyat axborot resurslaridan okilona foydalanishning eng muhim usullaridan biri bo'lib, xozirgi vaktga kadar bir necha evolyutsion bosqichlarni bosib utdi.

Ana shu bosqichlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.



1-bosqich. XIX asrning ikkinchi yarmigacha davom etgan. Bu bosqichda «Kullik» axborot texnologiya tarag'kiy etgan. Uning vositasi: pero, siyoxdon, kitob. Kommunikatsiya, ya'ni aloqa odamdan odamga yoki pochta orqali xat vositasida amalga oshirilgan.

2-bosqich. XIX asrning oxiri, unda «Mexanik» texnologiya rivoj topgan. Uning asosiy vositasi yozuv mashinkasi, arifmometr kabilardan iborat.



3-bosqich. XX asr boshlariga mansub bo'lib, «Elektromexanik» texnologiyalar bilan fark qiladi Uning asosiy vositalari sifatida telegraf va telefonlardan foydalanilgan. Bu bosqichda axborot texnologiyasining maqsadi xam uzgardi. Unda asosiy urKu axborotni tasvirlash shaklidan, uning mazmunini shakllantirishga kuchirildi.

4-bosqich. XX asr urtalariga to'g'ri kelib, «Elektron» texnologiyalar kullanilishi bilan belgilanadi. Bu texnologiyalarning asosiy vositasi EHMLar va ular asosida tashkil etiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

5-bosqich. XX asr oxiriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda «Kompyuter» texnologiyalari tarag'kiy etdi. Ularning asosiy vositasi turli maqsadlarga muljallangan dasturiy vositalarga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlardir. Bu bosqichda kundalik turmush, madaniyat va boshqa soxalarga muljallangan texnik vositalarning o'zgarishi ro'y berdi. Lokal va global kompyuter tarmoklari ishlatila boshlandi.

O'rganilayotgan fan sohasini aks ettiruvchi ham umumiy, ham ayrim xususiyatlarga ega bo'lgan tizimning ko'plab tushuncha va ta'riflari mavjud.

Tizim deganda elementlari orasidagi va ularning xususiyatlari o'rtasidagi aloqalar majmuiga ega bo'lgan, ya'ni bir-biriga chambarchas bog'langan qismlardan iborat bir butun obyektlar majmuasi tushuniladi. «Tizim»ni aniqlashda quyidagi atamalar ishlatiladi: «obyektlar», «bog'lanishlar» (aloqalar), «xususiyatlar».

Obyektlar — tizimning bir bo'lagi yoki komponentlari bo'lib, jismoniy, matematik o'zgaruvchan tenglamalar, qoida va qonunlar, texnologik jarayonlar, axborot jarayonlari, ishlab chiqarish bo'linmalari kabi ko'plab cheklanmagan qismlarga ega.

Xususiyatlar — bu obyektning sifatini ifodalovchi parametrlardir. Xususiyat tizimning ma'lum bir o'lchamga ega obyektlarini bittalab miqdoriy jihatdan bayon etish imkonini beradi. Obyektlarning xususiyatlari tizim harakati natijasida o'zgarishi mumkin.

Bog'lanishlar (aloqalar) obyektlar va ularning xususiyatlarini tizim jarayonida yagona yaxlitlikka birlashtiradi. Bunda barcha tizim elementlarining kenja tizimlari va tizimlar o'rtasida aloqa bo'lishi nazarda tutiladi. Ayrim umumiy qonuniyatlar, qoidalar yoki tamoyillar bilan birlashuvchilar o'rtasida aloqaning mavjud bo'lishi tizimning asosiy tushunchasi sanaladi. Boshqalar bilan biror-bir aloqaga ega bo'lmagan element ko'rib chiqilayotgan tizimga kirmaydi. Tizimning xususiyatlari quyidagilar sanaladi:

- elementlar murakkabligi,
- maqsadga qaratilganligi,
- turli-tumanligi hamda ular tabiati,
- tarkiblashganligi, bo'linishligidir.

Tashkiliy murakkablik tizimning asosiy xususiyati sanaladi va u elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar (o'zaro harakatlar) miqdori bilan aniqlanadi. Elementlar o'rtasidagi chatishib, qo'shib ketgan o'zaro aloqalar shunday tuzilganki, u birorta parametr aloqasining o'zgarishiga olib keladi.

Tashkiliy murakkablik elementlar tizimini tashkil etuvchi tavsiflar miqdori bo'lmagan, yaxlit holda, faqat tizimga tegishli tavsiflarni aniqlaydi. Umuman olganda, tizim uni tashkil etuvchi elementlardan boshqacharoq tavsiflarga ega bo'libgina qolmay, balki uning barcha qismlaridan sifat jihatidan farqlanadi. Shuningdek elementlar ega bo'lmagan boshqa vazifalarni ham bajarish xususiyatiga ega.

1.3-§. O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalarini keng joriy etish borasida olib borilayotgan ishlar

O'zbekiston so'nggi yillarda AKTni barcha ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarga, jumladan davlat boshqaruviga hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida joriy qilish bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirdi. Bu o'z o'rnida mamlakatimizda elektron hukumat tizimini joriy qilishda sezilarli natijalarga erishish imkonini berdi. Jumladan, AKTni keng qo'llash natijasida xalq bilan davlat o'rtasida aloqa o'rnatishning samarali tizimi joriy qilindi.

AKTning jadal rivojlanishi yangi imkoniyatlarni ochib berar ekan, davlat tomonidan keng ko'lamli qo'llab-quvvatlashni hamda respublikaning xalqaro AKT bozoridagi o'rnini kuchaytirishni talab qiladi.

Mamlakatimizda AKT uchun xalqaro standartlarga muvofiq dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sifatli va raqobatdosh dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni hal qilish, AKT mahsulotlari eksportini kengaytirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida AKT sohasida mahalliy Innovatsiya markazi - «Mirzo Ulugbek Innovation Center»ni tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

«Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha «Mirzo Ulugbek Innovation Center»» Innovatsiya markazi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 avgustdagi 631-son "Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-

quvvatlash bo'yicha «Mirzo Ulugbek Innovation Center» Innovatsiya markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida tuzildi.

Farmonga asosan, Innovatsiya markazining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- Xo'jalik yurituvchi subyektlar va oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini kengaytirish uchun axborot texnologiyalari mahsulotini ishlab chiqarishga hamda ichki va tashqi bozorlarda sotishga yo'naltirilgan zarur tashkiliy-texnik, iqtisodiy-moliyaviy sharoitlarni yaratish;
- Ichki va tashqi bozorlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (keyingi o'rinlarda – AKT) sohasida raqobatbardosh loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Innovatsiya markazi rezidentlariga yordam ko'rsatish;
- Oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar kollejlarining «axborot texnologiyalari» ixtisosligi bo'yicha bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda shu jumladan, qobiliyatli yoshlarni ular tomonidan «start-ap» loyihalar amalga oshirilishida qo'llab-quvvatlash ishtirok etish, yo'li bilan;
- Qisqa muddatli va o'rta muddatli ixtisoslashtirilgan kurslar olib borish orqali, shu jumladan, chet ellik mutaxassislarni taklif etgan holda, AKT sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil qilish;
- Istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha axborot texnologiyalari mahsulotini ishlab chiqish sohasida endigina ish boshlagan tadbirkorlar tomonidan innovatsion loyihalar amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash.

II. PHP WEB DASTURLASH TILI, UNING MA'LUMOTLAR BAZASI VA WEB SERVERLAR BILAN BOG'LIQLIGI

2.1-§. PHP web dasturlash tili haqida umumiy ma'lumotlar. Undagi funksiya va ob'yektlar

O'zgaruvchilar

O'zgaruvchilar hamma dasturlash tilining asosidir. Bularga O'zgarmas sonlar, belgilar va boshqalar kiradi.

Misol qilib sonlarni olaylik. Ular butun sonlar, qoldikli sonlar bo'lishi mumkindir va yana ularni orasiga ikkilik, sakizlik, o'n oltilik sanoq sistemasidagi sonlar ham kiradi. Yoki belgilardan &, %, /, \$, # va yana harflar ham kiradi.

Agarda biz qandaydir o'zgaruvchiga nimadir belgilab berish niyatimiz bo'lsa unda biz quyidagicha yozishimiz shartdir:

\$bilim="kitob";

\$rang="qizil";

Bulardan tashqari yana ishchi belgilarimiz bor ya'ni:

Nomi	Ta'rifi
<u>\n</u>	<u>Yangi qator</u>
<u>\r</u>	<u>kursorni qaytishi</u>
<u>\t</u>	<u>gorizontal tabulyatsiya</u>
<u>\\</u>	<u>Teskari qiyshiq chiziq</u>
<u>\\$</u>	<u>Dollar belgisi</u>
<u>\"</u>	<u>Qo'shtirnoq belgisi</u>
<u>\[0-7]{1,3}</u>	<u>Sakizlik sanoq sistemasini yozilish</u>
<u>\x[0-9A-Fa-f]{1,2}</u>	<u>O'n oltilik sanoq sistemi yozilishi</u>

Bu belgilarni kerakli bo'lgan joylarda qulaygina ishlatishingiz mumkindir.

Massivlar

Massiv: Bir qancha o'zgaruvchilarni birligidir. yozilishi: \$ismi[raqami] misol:

\$rang[0]= "ko'k";

\$rang[1]= "qizil";

```
$rang [2]= "yashil ";
```

Agarda siz print \$rang[1] desangiz unda oynangizga “qizil” chiqadi. Yoki array() komandasini ishlatishingiz mumkin. misol:

```
$kun =array("juma ", "shanba ", "yakshanba ");
```

Agarda sizga masivlarni so'z bilan ajratish qilay bo'lsa unda PHP buni ham qabul qiladi. misol:

```
$maktab["ismi "] = "Cho 'lpon ";
```

```
$maktab["raqami "] = "258 ";
```

```
$maktab["shahri "] = "Toshkent ";
```

Ichma ich massivlar ham yoza olasiz. yozilishi: \$ismi[raqami 1] [raqami2].. [raqamiN]; misol:

```
$shahmat[0][0]= "Peshka ";
```

```
$shahmat[0][1]= "Tora ";
```

```
$shahmat[1][1]= "Ot";
```

Mantiqiy funksiyalar

TRUE, FALSE

Solishtirish funksiyalariga “if else” funksiyasidir. Bunday solishtirishda sizda TRUE (Rost) yoki FALSE (yolg'on) chiqadi. keling misol bilan ko'rsak.

```
$flag=TRUE; if ($flag==TRUE): print "The flag is  
true! "; else:
```

```
print "The flag is false! "; endif;
```

Agarda flag o'zgarmvchimiz rest bo'lsa unda ekranimizga “The flag is true!” yoziladi. Agarda yolg'on bo'lsa unda ekranimizga “The flag is false!” yoziladi.

\$flag o'zgaruvchiga biz TRUE berganimizda bizning “The flag is true” yozuvimiz ekranga chiqadi. Huddi shunday agarda siz FALSE bersangiz unda ekraningizga “The flag is false” yozuvi chaqadi.

Shu yerda yozib o'tish o'rinli deb bildim. TRUE va FALSE yozuvlarini siz raqam bilan ham belgilab berishingiz mumkin. TRUE=1 FALSE=0.

Agarda yuqoridagi misolda \$flag=1; deganingizda ham oynangizga “The flag is true!” yozuvi chiqqan bo'lardi.

Nomlash

Ob'yektlarni, funksiyalarni, o'zgaruvchilarni nomlash uchun siz hamma belgilardan (lotincha) ishlatishingiz mumkin. Faqatgina boshlanishi sondan va yordamchi belgilardan bo'lishi kerak emas. Va ichida yordamchi belgilari bo'lmasligi kerak. misol:

<u>Mumkin</u>	<u>Mumkin emas</u>
<u>my function</u>	<u>This&That</u>
<u>Size</u>	<u>!counter</u>
<u>somewords</u>	<u>4word</u>
<u>otherstring</u>	<u>!otherstring</u>

O'zgaruvchilarni tanitish

Yuqorida o'zgaruvchilarga qandaydir so'zni, yoki gapni tanitish, ya'ni berishni ko'rib chiqdik.

Lekin yana bir bor qaytarib o'tish yana ham ko'proq o'rganishingizga, agarda tushunmagan bo'lsangiz tushunib yetishingizga yordam beradi.

So'z yoki gaplarni quyidagicha qilib tanitamiz:

\$sentence="Salom hayot! ";

Sonlarni esa:

\$price=43.22;

\$ogirligi=185;

Ichki o'zgaruvchi **Ichki (lokal) o'zgaruvchi**

Ichki (lokal) o'zgaruvchi deb funksiyaning ichida tanitilgan o'zgaruvchiga aytiladi. misol:

<?

\$x=4;

function assignx(){

\$x=0;

print "\\$x funksiya ichidagi \$x ";

}

```
assignx();
print "<BR> \ $x tashqaridagisi $x ";
?>
```

Shunda ekraningizda \$x ning ikki xil raqami chiqadi. 4 bu umumiy tanitilgan raqami, 0 esa ichkisidir.

Global o'zgaruvchi

Global, ya'ni umumiy o'zgaruvchanlar butun sahifamiz bo'yicha hamma joyda ishlatishingiz mumkindir. Yuqoridagi misolda \$x=4 bu bizning global o'zgaruvchimizdir. Agarda uni biz funksiyamiz ichida ishlatmoqchi bo'lsak unda:

```
$sonlar==15; function arifmet() {
GLOBAL $sonlar $sonlar=$sonlar+10; print "Bizningson $sonlar";}
arifmet();
```

Static o'zgaruvchi

Static: Bu ichki o'zgaruvchi bo'lib, ammo funksiyaning ichidan chiqqaningizdan keyin ham o'z qiymatini saqlab qoladi, va shu funksiyani keyingi bor ishlatganingizda o'z qiymati bilan ishlaydi. Misolda ko'raylik:

```
function keep_track(){
STATIC $count=0;
$count=$count + 10;
print $count;
print "<BR> ";
}
keep_track();
keep_track();
keep_track();
```

Agarda siz shu kodni ishlatsangiz unda sizning ekraningizda 10 20 30 sonlari yoziladi. Ko'rib turganingizdek har gal yangittan ishlatganingizda count o'z qiymatini saqlab qoldi.

Bir turdan ikkinchi turga o'tish

Agarda siz qandaydir son hoh butun son hoh qoldikli bir turdan ikkinchisiga o'tkazish niyatingiz bo'lsa unda bu dars sizga yordam beradi.

Keling avval qanday turlari borligini yozib so'ngra bir turdan ikkinchisiga o'tkazishni ko'rib chiqamiz.

<i>Turi</i>	<i>ta'rifi</i>
<u>(int) yoki (integer)</u>	<u>butun son</u>
<u>(real), (double), (float)</u>	<u>qoldikli sonlar</u>
<u>(string)</u>	<u>harf, belgilar</u>
<u>(array)</u>	<u>Massivlar</u>
<u>(object)</u>	<u>Ob'yektlar</u>

Keling bir turdan ikkinchi turga o'tkazishni ko'raylik.

```
$son=12;
```

```
$son=(double)$son;
```

shunda 12 soningiz 12.0'ga aylanadi.

Yoki yana bir boshqa misol

```
$son1=4.0;
```

```
$son2=5;
```

```
$son3=(int)$son1+$son2;
```

Shunda son3 9 soniga teng bo'ladi.

```
$son1=7.8;
```

```
$son2=6;
```

```
$son3=(int)$son1+$son2;
```

Shunda son3=13'ga

Agarda siz ob'yekt bermoqchi bo'lsangiz unda:

```
$model= "Toyota ";
```

```
$new=(object)$model;
```

siz buni ekranga chiqarish uchun scalar so'zidan foydalanishingiz kerak, ya'ni:

```
print $new->scalar;
```

O'zgarmaslar

Oldindan aniqlab berilgan son yoki sozlar tarkibidir.

Misol uchun agarda biz PI so'ziga 3.14 sonini bermoqchi bo'lsak va bu son hech ham o'zgarmasligini bilsak unda biz o'zgarmasni yozishimiz kerak (constant) misol:

```
define("PI", "3.14"); print "PI  
soni bu "; print PI;
```

Shu yerda bazi bir funksiyalarni ham ko'rib chiqaylik. print() - Bu oynaga ma'lumot yuborishdir.

sprintf() - Bu qandaydir ma'lumotni formatlash(kerakli shaklga kiritish) uchun va uni qandaydir o'zgaruvchiga berish uchun ishlatiladi.

printf() - qandaydir ma'lumotni formatlab oynaga yuborish uchun ishlatiladi. misol:

```
<?
```

```
$format=""The are %s monkeys in the $d";
```

```
printf($format, $num, $location);
```

```
?>
```

agarda biz \$num'ga 3 bersak va \$location'ga "tree" bersak unda quyidagi oynamizga chiqadi. "The are 3 monkeys in the tree" bo'ladi. yoki <?

```
$money1=68.75;
```

```
$money2=54.35;
```

```
$money=$money1+$money2;
```

```
$formatted=sprintf("%.2f", $money);
```

```
?>
```

shunda \$formatted=123.00 bo'ladi, agarda biz sprintf siz oynaga chiqarganimizda unda 123 chiqgan bo'lardi.

Formatlashga kiritish turlari.

%-protsent belgisi.

b- son, ikkilik sanoq sistemasida (0 va 1)

c- son, songa mos keladigan ASCII belgilarini chiqaradi. (65=A belgisi) d- son, belgili onlik sanoq sistemasi (+10 yoki -10) u-son, belgilanmangan onlik

sanoq sistemasi (10, 5) f- qoldiqli son, qoldiqli son shaklida (1.25, 20.36) o- son, sakizlik sanoq sistemasida (23, 65) s- belgi, ya'ni harflar yoki boshqa belgilar

x- son, o'n oltilik sanoq sistemasi (harflari kichkinada yoziladi) (12ab, d23c)
X- son, o'n oltilik sanoq sistemasi (harflari kattada yoziladi) (12AB, D23C) Mana shular bilan siz foydalanib ma'lumotingizni formatlashingiz mumkindir.

Operatorlar

<u>Operatorlar</u>	<u>Ta'rifi</u>
<u>Q</u>	<u>Qavs</u>
<u>new</u>	<u>Yangi, ob'yekt hosil qilish</u>
<u>! ~</u>	<u>Mantiqiy YO'Q</u>
<u>++ --</u>	<u>Bitta songa oshirish, kamaytirish</u>
<u>@</u>	<u>Hatolarni berkitish</u>
<u>/ * %</u>	<u>Bo'lish, ko'paytirish, qoldiq</u>
<u>+ - .</u>	<u>Qo'shish, ayirish, kesish</u>
<u><< >></u>	<u>Chapga, o'nga surish</u>
<u>< <= > >=</u>	<u>kichik, kichik va teng, katta, katta va teng</u>
<u>! <></u>	<u>Teng, teng emas, o'xshash, teng emas</u>
<u>& ^{JI} </u>	<u>AND, XOR, OR</u>
<u>&& </u>	<u>AND, OR</u>
